

“Boyo‘g‘li va qarg‘a” ertagining mazmunini so‘zlab bering. Siz qushlar haqida yana qanday ertaklarni bilasiz? Misollar keltiring.

## 5-Mavzu: Tulkining hiyłasi ko‘p...

### Dars maqsadi:

- “Yo‘lbars bilan tulki” tojik xalq ertak mazmuni bilan tanishtirish;
- juftlikda ishlash ko‘nikmasini shakllantirish;
- og‘zaki nutqini va lug‘at boyligini oshirish.

**Tayanch so‘zlar:** tulki, yo‘lbars, hiyla, manmanlik

**Didaktik materiallar:** tulki ishtirok etgan ertaklardan namunalar.

### Darsning borishi:

#### I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkillashtirib olish.

**Faollashtiruvchi mashq:** So‘zlarni bog‘lab, gap tuzing.

ERTAK RANGLI BO‘YOQ

#### II. O‘tilganlarni takrorlash. (7 daqiqa)

“Boyo‘g‘li va qarg‘a” ertagining mazmunini so‘zlab bering. Siz qushlar haqida yana qanday ertaklarni bilasiz? Misollar keltiring.

#### III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)

**Amaliy topshiriq:** *Darslikdagi rasmlarni kuzatib, ertakdagi umumiyl qahramonni aniqlang.*

Savollarga javob beriladi va muhokama qilinadi.

- Rasmlar qaysi ertakdan olingan?
- Bu ertaklardagi umumiyl qahramon haqida nima deya olasiz?

### Mavzuni tushuntirish.

Suhbat davom ettiriladi.

- Tulki qahramon bo‘lgan yana qanday ertaklarni bilasiz?
- Tulki ertaklarda qanday xislatlari bilan namoyon bo‘ladi? Tulkiga ta’rif beriladi.

### Matni ustida ishslash.

“Yo‘lbars bilan Tulki” ertagi navbatma-navbat o‘qitiladi. Ertak yuzasida n savollarga javob beriladi.

1. Tulki nima uchun qocha boshladi?
2. Sizningcha, Tulki nega tosh ustiga chiqib yig‘lay boshladi?
3. Yo‘lbars nima uchun jardan sakradi?
4. Ertakning qaysi qismi siz uchun qiziq? Fikringizni izohlang.
5. Siz yo‘lbarsni nimaga o‘xshatasiz? Tulkini-chi?
6. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?
7. Agar siz ertakchi bo‘lganingizda bu ertagingiz qanday yakun topgan bo‘lar edi?
8. Yo‘lbars qatnashgan yana qanday ertaklar va multfilmlarni bilasiz?

Matndagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

**epchil** – ishni tez bajaradigan, chaqqon harakatli.

**ravona bo‘lish** – ketish, jo‘nash.

**darrov** – darhol, qisqa vaqt ichida.


Darslikdagi topshiriqlar bajariladi. Ertak qahramonlariga tavsif beriladi.

Tulki- ayyor,...


Yo‘lbars- manman,...

### *“So‘z zanjiri” mashqi.*

Berilgan so‘zning oxirgi harfi bilan boshlanadigan hayvon nomlarini topib, zanjirni davom ettiriladi.



**Mashq daftari bilan ishslash.** Daftardagi topshiriqlarni bajarish.



Kataklar namunadagidek bo‘yaladi. Tulkining sifatlari yoziladi. (yovvoyi, ayyor, momiqqina...)

### *“Raqamlar tilsimi” mashqi.*

Bo'g'lnarni raqamlar ketma-ketligida joylashtiriladi va maqollar o'qitiladi.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
kam	tar	ye	tar	mu	rod	ga	man	man	qo	lar	u	yat	ga

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
maq	tan	gan	pand	yey	di	kam	ta	rin	qand	yey	di

Maqollar mazmuni dars bilan bog'lanadi.

#### **IV. Darsni yakunlash va baholash. (*3daqiqa*)**

- Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?
- Darsda nimalarni eslab qoldingiz?

**V. Uyga vazifa. (*2 daqiqa*)** Ertakni o'qing va mazmunini so'zlab bering.  
“Mening sevimli ertak qahramonim” mavzusida taqdimot tayyorlang.